

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ФАНЛАР  
АКАДЕМИЯСИ МИНТАҚАВИЙ БЎЛИМИ  
ХОРАЗМ МАЪМУН АКАДЕМИЯСИ**

# **ХОРАЗМ МАЪМУН АКАДЕМИЯСИ АХБОРОТНОМАСИ**

Ахборотнома ОАК Раёсатининг 2016-йил 29-декабрдаги 223/4-сон қарори билан биология, қишлоқ хўжалиги, тарих, иқтисодиёт, филология ва архитектура фанлари бўйича докторлик диссертациялари асосий илмий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган

**2022-3**

**Вестник Хорезмской академии Маъмуна  
Издается с 2006 года**

**Хива-2022**

**Бош муҳаррир:**

*Абдуллаев Икрам Искандарович, б.ф.д., проф.*

**Бош муҳаррир ўринбосари:**

*Ҳасанов Шодлик Бекпўлатович, к.ф.н., к.и.х.*

**Таҳрир хайати:**

*Абдуллаев Икрам Искандарович, б.ф.д., проф.*

*Абдуллаев Баҳром Исмоилович, ф-м.ф.д.*

*Абдуллаев Равшан Бабажонови, тиб.ф.д., проф.*

*Абдуҳалимов Баҳром Абдурахимович, т.ф.д., проф.*

*Аимбетов Нагмет Каллиевич, и.ф.д., акад.*

*Бабаджанов Хушнот, ф.ф.н., проф.*

*Бекчанов Даврон Жуманазарович, к.ф.д.*

*Буриев Хасан Чутбаевич, б.ф.д., проф.*

*Давлетов Санжар Ражабович, тар.ф.д.*

*Дурдиева Гавҳар Салаевна, арх.ф.д.*

*Дўсчанов Бахтиёр, тиб.ф.д., проф.*

*Ибрагимов Бахтиёр Тўлаганович, к.ф.д., акад.*

*Жуманиёзов Зоҳид Отабоевич, ф.ф.н., доц.*

*Кадирова Шахноза Абдухалиловна, к.ф.д., проф.*

*Қутлиев Учқун Отобоевич, ф-м.ф.д.*

*Ламерс Жон, қ/х.ф.д., проф.*

*Майкл С. Энжел, б.ф.д., проф.*

*Мирзаев Сирожиддин Зайниевич, ф-м.ф.д., проф.*

*Рахимов Раҳим Атажанович, т.ф.д., проф.*

*Рашидов Негмурод Элмуродович, б.ф.н., доц.*

*Рўзибоев Рашид Юсупович, тиб.ф.д., проф.*

*Рўзметов Бахтияр, и.ф.д., проф.*

*Садуллаев Азимбой, ф-м.ф.д., акад.*

*Салаев Санъатбек Комилович, и.ф.д., проф.*

*Сапарбаева Гуландам Машиариповна, ф.ф.ф.д.*

*Сапаров Каландар Абдуллаевич, б.ф.д., проф.*

*Сирожов Ойбек Очилович, с.ф.д., проф.*

*Сотипов Гойипназар, қ/х.ф.д., проф.*

*Тожибаев Комилжон Шаробитдинович, б.ф.д., академик*

*Холматов Бахтиёр Рустамович, б.ф.д.*

*Чўпонов Отаназар Отожонови, ф.ф.д., доц.*

*Шакарбоев Эркин Бердикулович, б.ф.д., проф.*

*Эрматова Жамила Исмаиловна, ф.ф.н., доц.*

*Эшчанов Рузумбой Абдуллаевич, б.ф.д., доц.*

*Ўразбоев Ғайрат Ўразалиевич, ф-м.ф.д.*

*Ўрозбоев Абдулла Дурдиевич, ф.ф.д.*

*Ҳажиева Мақсуда Султоновна, фал.ф.д.*

*Ҳасанов Шодлик Бекпўлатович, к.ф.н., к.и.х.*

Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси: илмий журнал.-№3 (87), Хоразм Маъмун академияси, 2022 й. – 480 б. – Босма нашрнинг электрон варианты - <http://mamun.uz/uz/page/56>

ISSN 2091-573 X

Муассис: Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси минтақавий бўлими – Хоразм Маъмун академияси

**МУНДАРИЖА**  
**АРХИТЕКТУРА ФАНЛАРИ**

|   |    |
|---|----|
| <b>Raximov L.Sh.</b> Madaniy ma'rifiy markaz binolarida saxna qismini loyixalash .....  | 7  |
| <b>Qodirova S.O., Urazbaeva Sh.K.</b> Zamonaviy kutubxona binolarini tashkil etishning arxitekturaviy kompozitsion yechimlari tahlili va takliflari ..... | 9  |
| <b>Бозоров М.М., Аралов М.М., Бозоров М.М.</b> Қарши шаҳар геодезик пунктлари координаталарини рекогносцировка орқали аниқлаш .....                       | 13 |
| <b>Убайдуллаева Д.Ф.</b> Факторы плотности населения, как главный показатель в расчете сети общественных зданий .....                                     | 17 |

**БИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ**

|  |    |
|--|----|
| <b>Bo'riyev S.B., Raximov J.R., Usmonova Sh.M., Qalandarova Z.D.</b> Buxoro viloyatidagi sun'iy suv havzalarida baliq chavoqlarini oziqlantirish usullari .....  | 20 |
| <b>Jumaniyazova Sh.I., Mambetullaeva S.M., Komiljonova S.X.</b> Monitoring and ecological assessment of natural lakes in Khorezm region of Uzbekistan .....  | 23 |
| <b>Koshanov D.E., Rzaev R., Ramazanov M.</b> Anthropometric and functional indicators of the youth in different regions of Karakalpakstan .....  | 28 |
| <b>Orudzhova Sh.M.</b> Seliteb complexes and their development dynamics of Arazboyu plain in Nakhchivan Autonomous Republic .....  | 30 |
| <b>Raximov J.R., To'rayeva H.T., Bahronova D.T., Azamatov Sh.A.</b> Zooplankton organizmlarni o'stirish texnologiyasi .....  | 34 |
| <b>Абдуллаев И.И., Рўзметов Р.С., Матякубов Ш.З., Досчонова М.Б.</b> Термитлар тарқалган маҳаллаларда термит ўчоғига айланиш эҳтимоллигини аниқлашда рақамли технологиялардан фойдаланиш .....   | 38 |
| <b>Азимов И.Т., Тошпўлатова Н.И.</b> Оҳангарон дарёси ҳавзасида тарқалган бетагали қораарчазорларнинг фитоценотик хилма хиллиги ва экологик ҳолати .....   | 40 |
| <b>Арепбаев И.М., Акрамова Ф.Д., Шакарбаев У.А., Ёркулов Ж.М., Мирзаева А.У., Азимов Д.А.</b> Жизненный цикл <i>Bilharziella polonica</i> (Schistosomatida: Bilharziellidae) – паразита водно-болотных птиц .....  | 43 |
| <b>Бекчанов Х.У., Абдуллаева М.Р., Комилжонова Г.К.</b> Фауна, фенология лёта и частота встречаемости семейства хохлаток - <i>Notodontidae</i> (Insecta, Lepidoptera) в Нижне-Амударьинском государственном биосферном резервате Республики Узбекистан ..... | 53 |
| <b>Мамадияров М.У., Мамадиярова Д.У.</b> Некоторые биологические особенности павловнии войлочной и ташкентского читальпа .....   | 65 |
| <b>Рахимов Ж.Р., Усмонова Д.Б., Амонов А.Ў., Норова Д.Х.</b> Балиқчиликни ривожлантиришда балиқ озукаси сифатида тубан сув ўтларнинг аҳамияти .....  | 67 |
| <b>Рахимова М.Б., Эсанов Р.С., Курбанназарова Р.Ш., Мерзляк П.Г., Гафуров М.Б., Сабиров Р.З.</b> Глицерет кислотасининг айрим алкалоидлар ва гетероҳалқали аминлар билан ҳосил қилган комплексларини ҳужайра ҳажм бошқарилишига таъсири .....                | 70 |
| <b>Турдиев Д.Э., Мустафина Ф.У., Газиев А.Д.</b> Ўзбекистон флораси учун эндем бўлган <i>Oxytropis</i> DC. ( <i>Fabaceae</i> Lindl.) туркуми турлари .....   | 74 |
| <b>Эргашев О.Р., Аликулов Э.О., Абдурасулов Ф.Ш., Абдурасулов Ш.Э.</b> Турлича ҳудуд ва шароитларда парваришланган ўрта толали ғўза шаклларининг минг дона чигити оғирлиги кўрсаткичларини қиёсий фарқланиши .....   | 83 |

**ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИК ФАНЛАРИ**

|  |     |
|--|-----|
| <b>Matyakubova Y.A., Raximov Sh.Sh., Yo'ldasheva Sh.X.</b> Yangi va istiqbolli kuzgi bug'doy navlarining hosildorligiga sug'orish rejimining ta'siri .....                             | 85  |
| <b>Yunusov R., Ganiyeva F.A., Salimova H.X., Islomov B.Sh.</b> Olma daraxti novdalarining o'sishi va meva shakllanishining biometrik tavsifiga me'yorlashgan qirqishning ta'siri ..... | 87  |
| <b>Абурахмонов Н.Ю., Собитов Ў.Т., Курдашев К.Д.</b> Суғориладиган гипсли бўз-ўтлоқи тупроқлардаги гумус ва озика элементлари миқдори .....  | 90  |
| <b>Болқиев З.Т.</b> Қаттиқ буғдой биометрик кўрсаткичларининг дон ҳосилдорлигига коррелеатив боғлиқлиги .....  | 93  |
| <b>Давлатов Ж.Ш., Сафаров А.А., Сағдиев М.Т.</b> Шўрланган тупроқ шароитида шоли етиштиришда янги стимуляторни қўллаш .....  | 97  |
| <b>Дилмуродов Ш.Д.</b> Кузги юмшоқ буғдойнинг дон сифати юқори тизмаларини танлаш .....  | 100 |
| <b>Карабаев И.Т., Ахмадалиев А.У.</b> Ерга турли усулда ишлов беришнинг кузги буғдой ҳамда такрорий экин мошининг униб чиқиши таъсири .....  | 103 |
| <b>Каюмов Н.Ш., Зиядуллаев З.Ф., Дилмуродов Ш.Д.</b> Лалмикор майдонларда экиб ўрганилган нўхат нав ва тизмаларнинг ҳосилдорлик ва дон сифат кўрсаткичи .....                          | 106 |
| <b>Облоқулов А.</b> Ўзбекистон иқтисодиёти эркинлаштириш шароитида шолчиликни ривожлантиришнинг объектив зарурияти ва ўзига хос хусусиятлари .....                                     | 108 |
| <b>Реимов Н.Б., Кдырбаева Г.У.</b> Орол бўйида деҳқончилик агротехнологиясини такомиллаштиришда ихтисослашувнинг аҳамияти .....  | 112 |
| <b>Рўзиева З.А., Эргашева Х.Б.</b> Respublikada urug'lik bug'doy doniga ishlov berishning zamonaviy holati .....   | 115 |
| <b>Эргашева О.Х., Мадримов Р.М., Эшназаров Ш.Н.</b> Қашқадарё вилояти лалми тупроқларининг ҳозирги ҳолати ва улардан фойдаланиш .....  | 120 |

Қорақалпоғистон Республикасида сунги йиллари кузатилаётган сув танқислиги сабабли қишлоқ хўжалиги экинларидан режалаштирилган ҳосил олинмаяпти. Масалан сув таъминати 39 % га тенг булган 2000-2001 йиллари асосий экинлар бири булган - ғўзанинг ҳосилдорлиги 12-13 ц/га га тенг бўлиб, ҳатто ўз қаражатларини қопламаган. Мана шунинг учун ғўза экилиш майданлари

Президентимиз ташаббуси билан Қорақалпоғистонда 30 минг гектарга камайтилиб, 4 та туман (Бўзатов, Мўйноқ, Тахтақўпир ва Қўнғирот) туманлари чорвачиликга ва ем хашак базасига ихтисослаштирилган. Сувни кам талаб қиладиган ўсимликлар – тарик, кунжут, кунгабоқар ва жўхорини, сувни ўртача талаб қиладиган ўсимликлар – кузги ва баҳори бугдой, беда, мева – сабзавот экинлари ва судан ўтини экиш режасига маълум даражада киритилгани ҳамда чорвачилик учун сув етарли даражада булганлиги сабабли Республикада экинзорлар (яшил ландшафт) майдани купайди. Ғўза майдани сув танқислигига мос камайтирилиб, сув маълум даражада етарли булган сунг ғўза ҳосилдорлиги 17,5 центнердан 22,3 центнергача ошди.

**Хулосалар ва тавсиялар.** Орол денгизи ҳавзаси ҳудудида қишлоқ хўжалиги-нинг иқлим ўзгаришига мослашиши ва юмшатиш бўйича қуйидаги асосий хулоса ва тамойилларга риоя этилиши мақсадга мувофиқдир:

1. Қорақалпоғистон қишлоқ хўжалигида сув таъминатига асосланиб қишлоқ хўжалиги ва чорвачиликда янги ихтисослашувни таъминлаш зарур.

2. Мавжуд сув ресурсларидан оқилона фойдаланиш асосида чорвачилик комплексини кучайтиб, қишлоқ хўжалик экинларини суғоришда замонавий тежамкор техника ва технологияларидан фойдаланиш керак;

2. Тупроқ унумдорлигини сақлаб ва оошириб бориш учун барча имкониятлар (далаларга гунг чиқариш, сидерат ва оралик экинларни экиш ва алмашлаб экишнинг бедали тизимларини) қўлланиш мақсадга мувофиқ.

3. Иқлим ўзгаришлари шароитида ерлардан оқилона фойдаланиш ва уни муҳофаза қилиб, ерларни фито тиклаш усулларини амалга ошириш;

4. Мураккаб мелиоратив ҳолат бўлган ҳудудларни рекультивациялаш ва янги интенсив боғларни барпо қилиш;

5. Қишлоқ хўжалигида ихтисослашувни чорвачилик, яйловлар ҳолати, регионнинг сув таъминати масалалари билан уйғунлаштириш;

6. Сув танқислигига боғлиқ Амударья бўйидаги жойлашган давлатлар ва Ўзбекистоннинг вилоятлари шоли кластерлари шоли майданлари назоратда бўлиши зарур. Сабаби 1 гектар шолига ишлатилган сув ҳисобига сувга бардошли экинлардан 10-12 гектар экиб, яхши ҳосил олишга бўлади.

7. Замонавий ресурстежамкор агротехнологияларни ишлаб чиқиш;

8. Қишлоқ ва сув хўжалигини моддий техник базасини кучайтириш.

9. Қишлоқ хўжалигининг ноананавий соҳаларни (асаларчилик, балиқчилик ва б.к.) ривожлантириш зарур.

#### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

1. Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 28 январдаги ПҚ-4574 сонли «Қишлоқ хўжалигини барқарор ривожлантиришда ер ва сув ресурсларидан фойдаланиш тўғрисида»ги қарори. Т- 2020. 01.28.

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 7 ноябрдаги «Қорақалпоғистон Республикасида чорвачилик тармоқларини жадал ривожлантириш чора-гадбирлари тўғрисида»ги ПҚ-4512-сонли қарори.Т.2019.11.07.

3. Новицкий З. Облесение засоленных почвогрунтов на осушенном дне Арала. Ўзбекистон қишлоқ ва сув хўжалиги журнали. 2018. №8. Б. 33.

4. Содиқова Ш. Сувни ихтисод қилиш – келажакни ўйлаш демек. Ўзбекистон қишлоқ ва сув хўжалиги журнали. 2019. №12. Б. 31.

5. Солиева Н. Қишлоқ хўжалигида ердан самарали фойдаланишнинг озик овқат хавфсизлигини таъминлашдаги урни ва аҳамияти. Ўзбекистон қишлоқ ва сув хўжалиги журнали. Агро илм иловаси. 2020. №1. Б. 25-26.

**UDK: 632:937**

### **RESPUBLIKADA URUG'LIK BUG'DOY DONIGA ISHLOV BERISHNING ZAMONAVIY HOLATI**

*Z.A.Ro'zieva, magistrant, Buxoro muhandislik-texnologiya instituti, Buxoro*  
*H.B.Ergasheva, dos., Buxoro muhandislik-texnologiya instituti, Buxoro*

**Annotasiya.** Mamlakatimizda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda g'allachilik tarmog'i yuqori ahamiyatga ega. Chunki, inson nonsiz hayot kechirishi mumkin emas. Shuni hisobga olgan holda respublikamiz istiqolining dastlabki yillarida «G'alla mustaqilligi» dasturining qabul qilingani va boshog'li don ekin maydonlari kengaytirilishi dunyo bo'yicha 800 milliondan ziyod insonlar to'yib ovqat yemayotgan

bugungi kunda mamlakatda g'alla ishlab chiqarish hajmini oshiribgina qolmay, balki aholini asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlari bilan barqaror ta'minlash imkonini bermoqda.

*Qishloq xo'jalik ekinlaridan yuqori hosil olishni ta'minlovchi chora-tadbirlar majmuida urug'chilik aloxida axamiyatga ega. Urug'chilik qishloq xo'jalik ishlab chiqarishning maxsus tarmog'i bo'lib, uning vazifasi parvarish qilinayotgan navlar sofliğini, biologik va xo'jalik qimmatiga ega bo'lgan sifatlarini saqlagan holda ularni ommaviy ko'paytirish bilan shug'ullanishdan iborat.*

**Kalit so'zlar:** *Qishloq xo'jalik ekinlari, yuqori hosil olishni ta'minlovchi chora-tadbirlar majmui, urug'chilik, navlar sofliği, biologik va xo'jalik qimmatı, fermer va dehqonlar manfaatdorligı, urug'chilik seleksiyası, urug'chilik paykallarida, elita, navlarning biologik va mahsuldorlik sifatları, urug'larnı o'lchash-qoplash va qoplar og'zını tikish.*

**Аннотация.** *Зерновая промышленность играет важную роль в обеспечении продовольственной безопасности нашей страны. Потому что человек не может жить без хлеба. В связи с этим в первые годы независимости принятие программы «Зерновая независимость» и расширение зерновых полей не только увеличили производство зерна в стране, где голодают более 800 миллионов человек во всем мире, но и стабилизировались. население с основными продуктами питания позволяет обеспечить.*

*Семеноводство занимает особое место в комплексе мероприятий по обеспечению высоких урожаев сельскохозяйственных культур. Семеноводство - особая отрасль сельскохозяйственного производства, задачей которой является массовое воспроизводство сортов при сохранении их чистоты, биологической и экономической ценности.*

**Ключевые слова:** *Сельскохозяйственные культуры, комплекс мероприятий по обеспечению высоких урожаев, семена, чистота сортов, биологическая и экономическая ценность, заинтересованность фермеров, селекция семян, семенные делянки, элитность, биологические и продуктивные качества сортов, мерное покрытие семян и зашивание горловины пакетов.*

**Abstract.** *The grain industry plays an important role in ensuring the food security of our country. Because a person cannot live without bread. In this regard, in the early years of independence, the adoption of the "Grain Independence" program and the expansion of grain fields not only increased grain production in the country, where more than 800 million people worldwide starve, but also stabilized. population with basic foodstuffs allows you to provide.*

*Seed production occupies a special place in the complex of measures to ensure high yields of agricultural crops. Seed growing is a special branch of agricultural production, the task of which is the mass reproduction of varieties while maintaining their purity, biological and economic value.*

**Key words:** *Agricultural crops, a set of measures to ensure high yields, seeds, purity of varieties, biological and economic value, interest of farmers, selection of seeds, seed plots, elitism, biological and productive qualities of varieties, measured seed coverage and sewing up the neck of bags.*

Respublikamiz hukumati tomonidan joriy yil 27 noyabr kuni qabul qilingan «Boshqoli don yetishtirishni yanada rag'batlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qaror g'allachilikdagi islohotlarni yangi bosqichga ko'targan holda inqilobiy ahamiyat kasb etdi desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Chunki, qaror bilan mustaqil O'zbekiston tarixida ilk marotaba kafolatlangan xarid narxlari o'tgan yilga nisbatan o'rtacha 60 foizga oshirildi. Bu esa g'alla yetishtiruvchi fermer va dehqonlar manfaatdorligini oshirishga va iqtisodiy jihatdan barqaror faoliyat yuritishini ta'minlashga qaratilgan.

Ahamiyatli tomoni shundaki, eng yuqori miqdorda chegirma qo'llab belgilanadigan davlat xarid narxi ham bu yilgi davlat xarid narxiga nisbatan 1,2 barobarga ortiqdir.

Qarorning yana bir muhim jihati shundan iboratki, boshqoli don yetishtirishga sarflanadigan xarajatlar uchun 100 foiz miqdorida davlat byudjetidan imtiyozli kredit ajratish belgilandi. Shu paytga qadar g'alla yetishtirishda mahsulot qiymatining 60 foizi miqdorida kredit ajratilib, sarflangan moddiy-texnik resurslarga o'z vaqtida va to'liq hajmda to'lovlar amalga oshirilmasdan o'zaro qarzdorliklar paydo bo'lishiga, bu esa agrotexnik tadbirlarni sifatsiz yoki o'z vaqtida o'tkazilmasligiga olib kelgan.

Imtiyozli kreditlarning mahsulot qiymatining 100 foizi miqdorida berilishi, fermer xo'jaliklarida mablag'lar taqchilligini oldini olib, talab etiladigan moddiy-texnika resurslariga o'z vaqtida to'lovlarni amalga oshirish orqali agrotexnik tadbirlarni to'laqonli o'tkazish imkonini beradi. Qaror bilan belgilangan yana bir yangilik – bu yetishtirilgan g'alla hosildorligiga bog'liq holda xarid baholarini oshirib borish yoki kamaytirish mexanizmi belgilanganidir. Ushbu tizim fermer xo'jaliklari tomonidan «tillodan-da yuqori qiymatga ega - xalq mulki bo'lgan yer va suv»dan oqilona foydalanish hamda sarflanayotgan resurslar (mineral o'g'it, yonilg'i moylash mahsulotlari, texnika va boshqalar) samaradorligini oshirish orqali yuqori hosil olishga bo'lgan qiziqishini rag'batlantiradi.

Mamlakatimiz qishloq xo'jaligining ekinlar hosildorligini uzluksiz oshirib borish va qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirishni keskin ko'paytirishga qaratilgan barcha tadbiriy choralari orasida urug'chilik aloxida ahamiyatga ega.

Urug'chilik seleksiya bilan chambarchas bog'liq. U yaratilgan yangi navlarni qishloq xo'jalik ishlab chiqarishga tezroq joriy etish va urug'chilik paykallarida mahsuldor urug'lar yetishtirish bilan seleksiya erishgan yutuqlarni amalga oshiradi. Ko'pchilik mutaxassislarning ko'rsatishlariga qaraganda zamonaviy tashkil qilingan yaxshi urug'chilik ekin hosildorligini 20 foizga oshirishga imkon beradi. Bu mamlakatimiz bo'yicha o'nlab, yuz ming tonna qo'shimcha don va boshqa qishloq xo'jalik mahsuloti demakdir. Demak, ekinlar hosildorligi qo'llanilayotgan agrotexnika darajasiga, shuningdek navlarni tanlash va ekish uchun ishlatiladigan urug' sifatiga xam bog'liqdir.

Hosildorlikni oshirishning eng asosiy chora-tadbirlari bilan urug'chilik shug'ullanadi - ya'ni u yangi yaratilgan navlarni ishlab chiqarishga joriy etish va jamoa xo'jaliklarida urug'chilikni takomillashtirish bilan birga quyidagi vazifalarni bajaradi:

1. Amaliyotga joriy etilgan navlar urug'ini qishloq xo'jalik ishlab chiqarish talablari darajasida ko'paytirish;

2. Davlat nav sinov natijalari asosida joriy etilgan, sifatli ko'p mahsulot beradigan yangi navlarni foydalanib kelinayotgan eski navlar bilan almashtirish;

3. Nav tozaligini saqlagan holda yuqori agrotexnikani qo'llab urug' ko'paytirish, urug'chilikning uchinchi vazifasini urug' sifatini saqlashni xal etadi;

4. Yuqori sifatli hosildorlikka ega bo'lgan, nav tozaligi oliy darajada kasallik va zararkunanda hashorotlarga o'ta chidamli, ekishga yaroqliligi va fizik jixatdan yuqori ko'rsatgichga ega bo'lgan, ko'paytirish uchun tayyorlangan navdor urug' elita deyiladi. U ekilayotgan navning eng yaxshi urug'i hisoblanadi. Buni qishloq va suv xo'jaligining urug'chilik Bosh boshqarmasi tomonidan tasdiqlangan maxsus qo'llanma asosida ilmiy tadqiqot korxonalari, qishloq xo'jalik oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarining o'quv tajriba xo'jaliklari yetishtiradi.

Mamlakatimizda dala ekinlari urug'chilik ishlari seleksiya urug'chilikning markazlashgan yagona davlat tizimi tarkibida olib boriladi. Seleksiya - urug'chilikning tizimi tarkibiga yangi nav yaratish bilan shug'ullanuvchi seleksiya, yangi navlarni sinash va ularni ishlab chiqarishga joriy etish ishlari bilan shug'ullanuvchi nav sinash Davlat komissiyasi – navlarning biologik va mahsuldorlik sifatlarini saqlab qolgan holda ularni ommaviy ko'paytirish bilan shug'ullanuvchi urug'chilik, urug' tayyorlash, nav va urug' nazorati kiradi. Seleksiya va urug'chilik tizimining asosiy tarmoqlarini va ularning vazifalarini quyidagicha bayon etish mumkin (1-jadval).

1-jadval

Seleksiya va urug'chilik tizimining asosiy tarmoqlari va ularning asosiy vazifalari

| Tarmoqlar                            | Vazifasi  | Bajaruvchilar   |
|--------------------------------------|---|---|
| 1. Seleksiya                         | Ekinlarning yangi nav va duragaylarini yaratish, ular urug'ini dastlabki ko'paytirish.                                | Seleksiya tajriba va ilmiy tadqiqot korxonalari.  |
| 2. Urug'chilik                       | Navdorlikni saqlagan holda yangi navlar urug'ini talab darajasida ko'paytirish. Super elita, urug'larni yetishtirish. | Yangi nav yaratgan ilmiy tadqiqot korxonalari, mintaqa ilmiy tadqiqot institutlari, qishloq jamoa xo'jaliklari va shirkatlar uyushmalarining brigadalari. |
| 3. Nav sinash va ularni joriy etish. | Davlat nav sinash komis-siyasi tomonidan yangi navlarni har tomonlama sinash va baholash.                             | Davlat nav sinash komissiya-si va uning mintakalar bu-yicha tarmoqlari.   |
| 4. Navdor urug' tayyorlash           | Urug'chilik xo'jalik-larida va tayyorlov tashkilotlarida navdor urug' tayyorlash saqlash va sotish.                   | Davlat fondi va qishloq xo'jalik vazirligining don qabul qilish tarmoqlari.   |

Maxsus urug'lik xo'jaliklari tashkil etilgan ishlab chiqarish xo'jaliklarining tizimi yuqori samaradorli va don mahsulot tarmog'i yuqori bo'lmog'i kerak. Maxsus urug'chilik tizimini amalga oshirish uchun xo'jaliklararo yirik qurilmalar kompleksi, urug'larga ishlov berish va saqlashda zavod xamda omborlar talab etiladi. Ularda urug'larga uzluksiz ishlov berish texnologiyasi zanjirsimon ketma-ket amalga oshirilib, urug'ni ish jarayonida xarakatlanirish uchun qo'l mehnati talab qilinmay, ular o'z oqimlari bo'yicha harakatlanadi va kundalik hamda vaqtli ish unumi yuqori ta'minlanadi. Har xil ekinlar urug'iga bir vaqtda ishlov berish uchun kompleks punktlarning har birida o'zaro bog'liq bo'lmagan ikkitagacha urug' tozalash quritish patogi bo'lishi ko'zda tutilgan. Bunda ikki xil kuzgi yoki bahorgi ekinlar, masalan, javdar va bug'doy yoki arpa va suli urug'lariga bir vaqtning o'zida ishlov berish, shuningdek zarur bo'lganda agregatlarni tozalash va ta'mirlash ishlarini aloxida amalga oshirish mumkin. Urug'larni o'lchash-qoplash va qoplar og'zini tikish, urug'larni mexanizmlar yordamida omborxonalariga uzatish va eng yaxshi xampalarda saqlash bilan oqim liniyasi tugallanadi.

Hozirgi zamon seleksiyasi to'g'ri tashkil etilgan urug'chilik bilan birga ekinlar hosildorligini va yalpi mahsulot miqdorini ko'paytirishda birinchi darajali ahamiyatga ega.

Yanada yuqori hosil bera oladigan yangi navlarni yaratish bilan ekinlar hosildorligini hozirgi o'rtacha ko'rsatgichga qaraganda 2,3-3 baravar oshirish mumkin. Dehqonchilikni intensivlashtirish seleksiya oldiga intensiv tipdagi navlar yaratish vazifasini qo'ydi.

Sanoat urug'chiligi maxsus urug'chilik xo'jaliklarida amalga oshiriladi. Ikkinchi zvenoga birinchi va ikkinchi reproduksiya ekinlari kiradi. Elita urug'lar yetishtiruvchi elita-urug'chilik xo'jaliklari birinchi reproduksiyani yetishtiradilar. Bu urug'lar xo'jaliklarga yetkazib beriladi. Ular ko'paytirish uchastkalariga ekiladi, ikkinchi va uchinchi reproduksiya uchun urug'lar olinadi.

Ilmiy texnika taraqqiyotining asosiy omillaridan biri bo'lgan yangi nav va duragaylarni yuqori reproduksiyali urug'larini yetarli miqdorda yetishtirish nav almashtirish hamda nav yangilashdek muhim tadbirlarni qisqa muddat ichida amalga oshirish imkonini beradi. Yuqori sifatli urug'lar yetishtirishning hozirgi zamon texnologiyasi barcha ekinlar uchun ishlab chiqarilib, keng maydonlarga joriy etilmoqda. Shuning uchun ham ko'pchilik ekinlarning urug'ini qayta ishlash, tozalash, saqlash bo'yicha maxsus zavodlar ishlab turibdi.

O'zbekiston mustaqil bo'lguniga qadar asosan lalmi sharoitida bug'doy yetishtirilardi, asosiy ekin maydonlari paxta bilan band edi. Mustaqillikdan keyin to'liq g'alla bilan ta'minlash masalasi qo'yildi. Biroq barcha maydonlarga ekiladigan urug'larni yetkazib berishning imkoni bo'lmay qoldi. Sug'oriladigan maydonlarga ekiladigan bug'doy navlari juda kam edi. Shuning uchun iqlimi nisbatan bizga o'xshagan chet mamlakatlardan navlar keltirildi va qisqa vaqt ichida moslashtirildi. Quyida o'zimizda yaratilgan va chetdan keltirilgan navlarning tavsifini ko'rib chiqamiz.

**7701446 "Unumli bug'doy"** - O'rta Osiyo tajriba stansiyasida (O'zbekiston o'simlikshunoslik ITI) K-45930 namunasidan yakka tanlash yo'li bilan yaratilgan. Qishloq xo'jaligi ekinlari Davlat reestriga kiritilgan, respublikaning sug'oriladigan yerlarida 1983 yildan kuzgi muddatda ekishga tavsiya etilgan.

Eritroleukon turiga mansub, biologik - bahorgi. Boshog'i silindrsimon shaklda (yuz qismi yon qismiga nisbatan kengroq), yirik, zich emas. Boshog' qipig'i lansetsimon, o'rtacha kattalikda, aniq tomirlangan. Tishchasi o'rtacha uzunlikda, o'tkir, qiltiqli. Yelkasi tor, o'tkir, choki juda aniq. Qiltig'i o'rtacha uzunlikda, qattiq, tarqoq. Doni yirik, bochkasimon, sayoz ariqchali, donining asosi tukli, 1000 ta donining massasi 40,5 g. Ertapishar, o'suv davri o'rtacha 204-220 kun, respublikaning janubida 165 kunda pishadi. Yotib qolish va to'kilishga bardoshli, qurg'okchilikka chidamliligi yaxshi, 5 ball atrofida. Donning o'rtacha hosildorligi (1994-1999 sinov yillarida) respublikaning sug'oriladigan NSSh larida gektariga 46,8-55,4 sentner atrofida bo'ldi. Qishloq xo'jaliklari kasalliklari va hashorotlari bilan kuchsiz darajada, sariq zang bilan esa 10 foizgacha zararlanadi.

**9200053 Hosildor ("SANZAR-6")** - O'zbekiston donchilik ITI ("Don" IChB) ning seleksion navi. Qishloq xo'jaligi ekinlari Davlat reestriga kiritilgan, respublikaning sug'oriladigan yerlarida 1996 yildan kuzgi muddatda ekishga tavsiya etilgan. Grekum turiga mansub, biologik-kuzgi. Boshog'i prizmasimon, o'rtacha uzunlikda va zichlikda. Boshog' qipig'i lansetsimon, kam tomirlangan, boshog' qipigi tishchasi uzun, qiltiqsimon. Yelkasi kalta, choki juda aniq. Qiltig'i tarqoq, oq dag'al. Doni o'rtacha kattalikda, oq, dumaloq-silindrsimon, sayoz ariqchali, 1000 ta donining massasi o'rtacha 42,5 g. U suv davri o'rtacha 228 kun, shimolda (Nukus NSSh) 260 kun, janubda o'rtacha 164 kundan 179 kungacha pishadi. Nav yotib qolish va to'kilishga bardoshli, qishga chidamli, 5 ball atrofida.

Sinov yillari (1994-1998) o'rtacha hosildorlik sug'oriladigan NSShlarda: Fargona viloyati Bog'dod NSShda, Surxondaryo viloyati Uzun NSShda va Samarkand DNSSda gektariga 51,4 sentnerga, 54,2 sentnerga va 53,4 sentnerga to'g'ri kelgan. 1999 yili eng yuqori hosil tanlovida Urganch NSShda gektaridan 61,7 sentnerdan olindi. Qishloq xo'jaligi kasalliklari va hashorotlari bilan sinov yillari (1994-1998) kuchsiz darajada zararlandi, qorakuya bilan ham kuchsiz darajada shikastlandi. 1999 yili sariq zang bilan kuchli zaralanish Surxondaryo, Qashqadaryo va Xorazm NSShlarida 75 dan 100 foizgacha, qolgan viloyatlarda o'rtacha darajada, 10 - 35 foiz atrofida zararlandi. Non qilib yopish sifati yaxshi, qimmatbaho navlar guruhiga kiradi.

**8900752 "YuNA"** - P.P.Lukyanenko nomidagi Krasnodar qishloq xo'jaligi ITI va Shimoliy Kuban qishloq xo'jaligi tajriba stansiyasining seleksion navi. "Obriy" x "Lyutessent-2338" (aralashma liniya) duragay populyasiyasidan ikki marotaba yakka tanlash yo'li bilan yaratilgan. Qishloq xo'jaligi ekinlari Davlat reestriga kiritilgan, respublikaning sug'oriladigan va shartli sug'oriladigan lalmikor yerlarida 1998 yildan kuzgi muddatda ekishga tavsiya etilgan.

Lyutessent turiga mansub, biologik kuzgi. Boshog'i prizmasimon, o'rtacha kattalikda. Boshog' qipig'i lansetsimon, kuchsiz tomirlangan, tishchasi kalta, o'tkir, yelkasi ko'tarilgan. Choki juda aniq. Boshogining yuqori qismida 10-12 mm uzunlikda qiltiqsimon o'simta bor. Doni yirik, ovalsimon, sayoz ariqchali. Donning asosi tukli, 1000 ta doning massasi o'rtacha 40 g ni tashkil qiladi. Donning o'rtacha

hosildorligi respublikaning sug'oriladigan NSShlarida sinov yillarida gektariga 61-66 sentnerga to'g'ri kelgan. Shartli sug'oriladigan lalmikor yerlarda 31-36 sentnerdan, 1998 yili 42,1 sentnerdan hosil olgan.

Urug'chilik mamlakatimizda qishloq xo'jalik ekinlarining hosildorligini to'xtovsiz oshirib borishda va mahsulotlar hajmini keskin ko'paytirishda muhim tadbirlar tizimidir. Shuning uchun urug'chilik qishloq xo'jalik ishlab chiqarishining maxsus tarmog'i hisoblanadi va seleksiya fani bilan chambarchas bog'liq. U seleksiya yaratgan yangi navlarni ishlab chiqarishga joriy etish va urug'chilik maydonlaridan sifatli mahsuldor urug'lar yetishtirish bilan seleksiya yutuqlarini amalga oshiradi.

**Urug'chilikning maqsadi** – ijara, shirkat, jamoa, fermer va tomorqa xo'jaliklari sharoitlarida rayonlashtirilib, ekilayotgan navlarning urug'ini ommaviy ravishda nav tozaligini, xo'jalik -biologik va hosil sifatlarini saqlab ko'paytirishdan iborat. Bu maqsadni amalga oshirish uchun urug'chilik quyidagi vazifalarni:

**Birinchidan** – ishlab chiqarishga yangi rayonlashtirilgan navlarning yuqori sifatli navli urug'lik materiallarini mintaqadagi barcha xo'jaliklarga yetarli miqdorda yetkazib turish;

**Ikkinchidan** – esa muayyan sharoitda rayonlashtirilgan navlar urug'ining nav tozaligi, xo'jalik – biologik va hosil sifatlarini yuqori darajada saqlab turishni amalga oshirishi zarur. Chunki, navning eng sifatli urug'i ishlab chiqarishda surunkasiga bir necha yil ekilgach, uning nav va ekish sifatleri pasayib, nav yomonlashib boradi. Bunga yo'l qo'ymaslik uchun zarur tadbirlar va choralar qo'llaniladi.

O'zbekiston Respublikasi "Urug'chilik to'g'risida"gi qonuniga ko'ra, urug'chilikni asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- qishloq xo'jalik ekinlarining o'z urug'chilik bazasini yaratish;
- navni yangilash, navni almashtirish jarayonida urug'lik navlari va duragaylarining biologik hamda xo'jalik jihatdan qimmatli xususiyatlarini saqlab qolish;
- yo'qolib borayotgan navlarning genofondini saqlab qolish;
- respublikaning iqlim sharoitlariga moslashgan yangi nav va duragaylar urug'ini yaratish;
- qishloq xo'jaligini serhosil va yuqori sifatli urug'lar bilan ta'minlash;
- urug'chilikning sifati va ustidan davlat nazoratini amalga oshirish;
- urug'likka jahon tajribasi yutuqlarini joriy etish.

Ekish uchun yuqori sifatli navli urug'lardan foydalanish ekinlar hosildorligini oshirish omili bo'lish bilan birga, dehqonchilik madaniyatini belgilaydigan ko'rsatkichdir.

Fan yutuqlari va ishlab chiqarish ilg'orlarining tajribalaridan ma'lumki, zamonaviy to'g'ri tashkil qilingan urug'chilik turli ekinlar hosildorligini kamida 20 % ga oshiradi. Mamlakatimiz miqyosida bu o'nlab, yuzlab, millionlab tonna qo'shimcha don, paxta, moy, qand va boshqa oziq-ovqat hamda xom-ashyo mahsulotlari demakdir.

Ma'lumki, ekinlarning hosildorligi qo'llanilayotgan texnologiya saviyasiga hamda navlarni to'g'ri tanlashdan tashqari ekish uchun foydalanilayotgan urug' sifatiga ham bog'liqdir. Shu yo'l bilan yetishtirilayotgan qo'shimcha hosil hech qanday xarajatlarsiz olinadi va katta iqtisodiy samara beradi. Shuning uchun urug'chilik barcha tadbirlar ichida xo'jalik uchun amalga oshirish eng oson va qulay bo'lgan foydali tadbir hisoblanadi.

Ilmiy texnika tarqqiyotining asosiy omillaridan biri bo'lgan yangi nav va duragaylarning yuqori reproduksiyali urug'larini yetarli miqdorda yetishtirish, nav almashtirish hamda nav yangilashdek muhim tadbirlarni qisqa muddat ichida amalga oshirish imkonini beradi. Yuqori sifatli urug'lar yetishtirishning hozirgi zamon texnologiyasi barcha ekinlar uchun ishlab chiqarilib, keng maydonlarga joriy etilmoqda. Shuning uchun ham ko'pchilik ekinlarning urug'ini qayta ishlash, tozalash, saqlash bo'yicha maxsus zavodlar ishlab turibdi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Абдукаримов, Д. Т. Сафаров, Т. Остонакулов. "Дала экинлари селекцияси, уруғчилиги ва генетика асослари" Тошкент "Мехнат"
2. Останокулов, Т.Э. "Селекция ва уруғчилик асослари" Тошкент "Истиклол" - 2002 й.
3. Влияние климатических условий на качество зерна пшеницы.// Х.Б. Эргашева, С.Д. Бобоев, Р.Т. Адизов, А.Х. Гаффоров/ Углубление интеграции образования, науки и производства в сельском хозяйстве Узбекистана. Докл. межд. научно-практ. конф.; Ташкент, 2003., с. 296-298.
4. Эргашева Х.Б., Раджабова В.Э. Качество пшеничной высокобелковой муки// Наука и образование сегодня// №6 (17). М.; 2017, с.11